



**SUT MAXSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDA SANITARIYA
ME'YORLARIGA AMAL QILISHNING AHAMIYATI**

Qarshi DTU katta o`qituvchisi

A.Saidov., Z.Xoliqov.

Annotatsiya: Ushbu maqolada sut mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning belgilovchi xujjatlari, ya'ni SanQvaN lar to'g'risida ma'lumot, hamda sut maxsulotlari ishlab chiqarishda atrof-muhitning sanitariya muhofazasi qoidalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: sut, oziq-ovqat, oqsillar, yog'lar, sut qandi, vitaminlar, fermentlar, gormonlar, gazlar, pigmentlar.

Sut mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning belgilovchi xujjatlardan biri O'zbekiston Respublikasining «Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida»gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 iyuldagagi PF-6035-sonli farmoniga asosan “Sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish sanitariya qoidalari va me'yordari” (0039-22-son SanQvaN) da belgilab berilgan.

Sut va sut mahsulotlarining xavfsizlik mezonlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 iyuldagagi 474-son qarori bilan tasdiqlangan “Sut va sut mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglament va SanQvaN lari 0366-19-son «Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha gigiena normativlari»da belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi aholisini to'g'ri ovqatlanishini tashkil etishda yuqori biologik qiymatga ega bo'lgan sut mahsulotlarini ahamiyati juda katta.

Sut mahsulotlari ishlab chiqarishda boshlang'ich xomashyo – sutni o'zi kelib chiqishi biologik bo'lgan qimmatli oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi. Sutda odam organizmini normal rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha hayotiy muhim moddalar mavjud: oqsillar, yog'lar, sut qandi, mineral tuzlar va suv, organik kislotalar,



vitaminlar, fermentlar, gormonlar, gazlar, pigmentlar va boshqalar. Komponentlarni optimal birgaligi sutni barcha yoshdagি odamlar uchun qimmatli, almashtirilmaydigan ovqatlanish mahsulotiga aylantiradi.

Sut boshqa fiziologik suyuqliklar kabi ham ichki (fermentlar va boshqalar) va ham tashqi omillar ta'sirida doimiy o'zgarishlarga moyil bo'ladi. Bunda mikrobiologik jarayonlar juda muhim rol o'ynaydi, chunki sut bir vaqt ni o'zida ham saprofit va ham kasallik tug'diruvchi bakteriyalarni rivojlanishi uchun o'ta qulay muhit hisoblanadi.

Sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarining sanitariya himoya mintaqasi SanQvaN 0350-17-son «O'zbekiston Respublikasi aholi turar-joy atmosfera havosini muhofaza qilish sanitariya qoidalari va normalari»ga muvofiq belgilanadi.

Sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalaridan atmosferaga tarqalayotgan gaz va aerozol chiqindilari, separator chiqindilari oqava suvlari tarkibiga tushishi, shuningdek, yog'lar va oqsil chiqindilari, qayta ishlangan kimyoviy reagentlar, dezinfektsiyalovchi va yuvish vositalari hamda boshqalar hisobiga atrof-muhit ifloslanishining oldini olish choralar ko'riliishi kerak.

Korxonada ishlab chiqarish va maishiy oqava suvlarni yig'ish va oqizish uchun kanalizatsiya bo'lishi kerak. Kanalizatsiya tizimi aholi turar joy punktlari kanalizatsiya tizimiga ulangan bo'lishi yoki xususiy tozalash inshootlari tizimiga ega bo'lishi kerak.

Korxona oqava suvlarni aholi turar joy punktining kanalizatsiya tizimiga oqizishdan oldin mahalliy tozalash qurilmalaridan o'tkazilishi lozim.

Korxonaning oqava suvlari epidemiologik jihatdan xavfli bo'lgan holatlarda, ular suv ob'ektlariga tashlanishi taqiqilanadi.

Sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarida sutni quritish va quruq sut mahsulotlarini qadoqlash, erigan pishloqni dudlashda, pishloqni parafinlashtirish va boshqalarda gaz hamda bug'larning ajralishi kabi texnologik jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan atmosfera havosini zararli chiqindilardan tozalash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.



Aerozollarni o‘zida saqlagan qayta tozalangan havo atmosfera havosiga chiqarilishdan oldin filtrlarda tozalanishi kerak.

Qattiq chiqindilarni qopqoqli metall idishlarda yoki konteynerlarda yig‘ilishi hamda alohida ajratilgan chiqindixonalarga olib borib tashlanishi kerak.

Yuqoridagi mulohazalarni hisobga olgan holda eng asosiy vazifa avvalo xomashyoni barcha qimmatli tabiiy xususiyatlarini uni sut fermalarida olinishidan boshlab savdo tarmog‘iga berilguniga qadar vaqt mobaynida saqlab qolish hisoblanadi. Ushbu vazifani muvaffaqiyatli hal etilishiga sutni qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilishi, ishlov berilishi, sanoatda uni sut mahsulotlariga qayta ishlanishi texnologik jarayonlarini yaxlit, uzluksiz zanjirini yaratish yo‘li bilan erishiladi.

Sut mahsulotlarini sanoat miqyosida ishlab chiqarilishi sut xomashyosiga kimyoviy, fizikaviy, mikrobiologik va boshqa ta’sir usullariga yoki ularni kombinatsiyasiga asoslangan alohida texnologik jarayonlardan iborat bo‘ladi.

Sariyog‘, pishloq, tvorog ishlab chiqarishda yog‘siz sut, ayron va sut zardobi kabi qo‘srimcha mahsulotlar hosil bo‘ladi. Ular hozirgi paytda «yog‘siz sut xomashyosi» degan shartli nom bilan ataladi. O‘zini biologik xususiyatlariga ko‘ra yog‘siz sut xomashyosi yog‘li sutdan qolishmaydi. Yog‘siz sut xomashyosini eng muhim qismlari oqsillar, uglevodlar va mineral moddalar hisoblanadi.

Yog‘siz sut xomashyosini mayjud katta zahiralari, oziqaviy va biologik qiymati uni to‘plashni va oqilona qayta ishlashni taqozo qiladi.

Bundan tashqari sifatli sut mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning assortimentlarini takomillashtirish uchun zamonaviy texnologiya va jihozlardan unumli foydalanishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кобилова Г. И. Исследование прогресса пути к устойчивому развитию использования пищевых отходов в глобальной экономике //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 117-123.
2. A.Saidov, Z.Xoliqov, Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning ustivor yo‘nalishi // “XALQARO OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI



XAVFSIZLIGINI ILMIY NAZORAT QILISH VA DOLZARB VAZIFALARI"

Toshkent – 2024- 73-74 s.

3. Kobilova G.I. et al. Innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 1 SPECIAL. – C. 108-111.

4. Кобилова Г.И. Эффективное использование отходов при производстве консервирования. – 2023.

5. Файзиев Ж.С. Сут ва сут маҳсулотлари технологияси (дехқон, фермер ва мутахассислар учун қўлланма), Т.2019

<https://lex.uz/ru/docs/6346736>